2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 6 (1332), 2025-yil 10-yanvar, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Inson qadri uchun

Yurtimizdagi har bir islohot negizida, eng avvalo, aholiga munosib turmush sharoiti yaratish, farovonligini oshirish, daromadli qilishdek ezgu maqsad turibdi. Davlatimiz rahbarining “Har qanday islohot quruq raqamlarda emas, balki, eng avvalo, aholining kundalik hayotida, uning dasturxoni va ro‘zg‘orida o‘z aksini topishi zarur”, degan so‘zlarining amaldagi ro‘yobi bugun hayotda ham ijobatini topmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalishi shaharu qishloqlarimizning obod qiyofasida, bozorlarimizning to‘kinligida, xalqimizning kundalik hayotida namoyon bo‘lmoqda.

JIZZAX VILOYATI: ISLOHOTLAR RAQAMLARDA EMAS, ODAMLAR TURMUSHIDA AKS ETMOQDA

Jizzax ko‘chalarini kezib, keyingi yillarda qad ko‘targan zamonaviy va ko‘rkam ko‘p qavatli uy-joylar, savdo va maishiy xizmat binolari, ishlab chiqarish korxonalari, bog‘laru xiyobonlar, yo‘llarga sig‘mayotgan avtomobillar, hamisha odamlar bilan gavjum bozorlar, tamaddixonalaru to‘yxonalarni ko‘rib ham bunga guvoh bo‘lish mumkin.

Oxirgi ikki-uch yilda Jizzax shahri yo‘llarida tirbandlik yuzaga kelmoqda. Bu maqtanadigan holat ham emas. Odamning qimmatli vaqti zoye ketadi, asabi tarang bo‘ladi. Ammo bu ham taraqqiyotning, aholi farovonligining bir belgisi. Yana bir ahamiyatli jihati shuki, ushbu avtomobillarning ko‘pi Jizzaxda ishlab chiqarilgan.

Davomi 3-betda

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

TARAQQIYOTNING MUHIM POYDEVORI

Davlat dasturi loyihasida 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va maqsadli ko‘rsatkichlar nazarda tutilmoqda.

Loyihada atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot masalalariga asosiy e’tibor qaratilishi barobarida ijtimoiy-iqtisodiy, davlat boshqaruvi, sud-huquq, xavfsizlik va tashqi siyosat yo‘nalishlarida joriy yilga mo‘ljallangan keng ko‘lamli islohotlar ko‘zda tutilgan.

Ushbu hujjatlar loyihasi turli mehnat jamoalari, keng jamoatchilik orasida hozirdanoq qizg‘in muhokama qilinmoqda. Jumladan, yurtdoshlarimiz ushbu dasturiy hujjat mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida o‘z munosabatlari, taklif va tavsiyalarini bildirmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.

O‘ZBEKISTON 2030

Davomi 2-betda

Yangicha yondashuvlar

TABIAT BILAN MUROSA

Buning uchun fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini qo‘llash zarur

Tarix davomida insoniyat yashash va hayotini yaxshilash uchun kurashib kelgan. Bu kurash uning, asosan, xo‘jalik yuritishidan iborat bo‘lgan. Bu jarayonda odamzod tabiatdan foydalanib, unga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ishlab chiqarishning benihoya yuksalishi tufayli jamiyatning ilmiy-texnik va ekologik rivojlanishida ziddiyatlar paydo bo‘ldi.

Bir tomondan fan-texnikani yuksaltirsa, ikkinchi tomondan atrof-muhitni ifloslantirib, ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Ba’zi mutaxassislar muammolarni bartaraf qilish uchun Yer yuzida aholi ko‘payishini to‘xtatish, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirmaslik, atrof-muhit muhofazasiga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirish singari g‘oyalarni ilgari surdi. Ammo bu g‘oyalar bugun — taraqqiyotni to‘xtatib bo‘lmaydigan davrda haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

Aholi soni o‘sishini sun’iy to‘xtatish o‘rniga kam chiqindili texnologiya joriy qilish, sanoat xomashyosi va chiqindilarini to‘liq zararsizlantirish, transport tashlama gazini parchalash va kamaytirish, ekologik toza energiya resurslaridan foydalanish, umuman, butkul ekotexnologiyaga o‘tish eng maqbul yechim ekani kundan kunga oydinlashmoqda.

Sanoatning rivojlanishi korxonalardan atmosferaga ko‘tarilayotgan chiqindi gaz, oqova suv, qatlam suvi, havoga tarqalayotgan mexanik aralashmalar, vodorod sulfidi, merkaptanlar tarkibidagi oltingugurt moddasi, avtotransportlardan chiqayotgan tutun gazi jamiyat va tabiatning tarkibiy qismlariga ta’sirni oshirib yubordi.

Atmosfera ifloslanishi natijasida yirik shaharlar mikroiqlimida yaqqol o‘zgarish sezildi. Bu hududlarda havodagi aerozol quyosh nurining ko‘p qismini yutib olib, yerga kam o‘tkazdi. Ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasi oshishi tufayli bunday joylarda bulutli va tumanli kunlar ko‘payib, quyoshli, ochiq kunlar kamayib bordi.

Davomi 6-betda

QO‘NG‘IROT – BEYNEU YO‘LI

1 MILLIONDAN ZIYOD AHOLINING HAYOTINI O‘ZGARTIRMOQDA

Bunyodkorlik

Inson tug‘ilgan elida aziz. O‘z elingning yaxshisi ham, yomoni ham o‘zingniki bo‘ladi. Uning har bir qarich yeri, giyohi, suvi qadrli, tuprog‘i aziz. Shu bois, yurtimizdagi bugungi o‘zgarishlar barchamizning, ayniqsa, biz — qoraqalpog‘istonliklarning katta xursandchiligiga, hayotdan rozi bo‘lib yashashiga xizmat qilmoqda.

Qoraqalpoq eli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning alohida g‘amxo‘rligini o‘z hayotida his qilayotgani ham bor gap. Chunki bugungi Qoraqalpog‘iston kechagi Qoraqalpog‘iston emas. Bugun har jabhada katta-katta o‘zgarishlar qilinmoqda. Kun sayin mahallalar qiyofasi tubdan o‘zgarib boryapti. Yangidan qurilayotgan bolalar bog‘chalari, maktablar, tibbiyot muassasalari, boshqa ijtimoiy xizmat obyektlari, inshootlar, zamonaviy uy-joylar ko‘zni quvnatib, oddiy odamlar hayotida yangicha mazmun kasb etyapti.

Davomi 3-betda

Taraqqiyot odimlari

SAYYOHLIK RIVOJI BO‘YICHA ENG FAOL MAMLAKAT

O‘ZBEKISTON QISQA MUDDATDA BU MAQOMGA QANDAY ERISHDI?

Sayyohlik jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Boisi, bu soha aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirishda muhim o‘rin tutadi. U orqali topilgan daromadning 30 foizi odamlarga ish haqi sifatida beriladi. Holbuki, sanoat va boshqa tarmoqlarda bu ko‘rsatkich 10 foizdan oshmaydi. Demak, turizmni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik va farovonlikka xizmat qiladi.

O‘zbekiston boy madaniy va tarixiy merosi, mehmondo‘st xalqi hamda go‘zal tabiati bilan sayyohlik sohasida katta imkoniyatga ega. Mamlakatimizda 8000 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud. Ularning bir qismi UNESCOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Termiz shaharlari jahonga mashhurligi bilan ajralib turadi.

Keyingi yillarda yurtimizda bu boradagi imkoniyatdan unumli foydalanishga e’tibor kuchaydi. Xususan, O‘zbekistonda sayyohlik sanoati va xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga davlat tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, sohaning me’yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirildi. Tadbirkorlarga soliq imtiyozlari va preferensiyalar taqdim etildi. Milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish uchun sharoit yaratildi, viza rejimi liberallashtirilib, qulay sayyohlik muhiti shakllantirildi. Ushbu hujjatlar orqali yurtimiz har bir hududining sayyohlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish tadbirlari ko‘rilmoqda.

Davomi 5-betda

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

TARAQQIYOTNING MUHIM POYDEVORI

Boshlanishi 1-betda

XALQIMIZ HAYOT SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN DASTURIY HUJJAT

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilindi.

Mazkur hujjat mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ekologik muammolarni bartaraf etish va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilishga doir aniq vazifalarni qamrab olgani bilan e’tiborga molik. Zero, unda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlardagi ustuvor vazifalarni hal etish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilab olingan bo‘lib, pirovardida jamiyat farovonligi, xalqimiz hayot sifati va davlatimiz iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.

Bugun dunyodagi mavjud ekologik vaziyat, xususan, mintaqamizdagi holat suvdan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni tejab va samarali ishlatish vazifasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bu ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhim hisoblanadi. Yilning nomlanishi aynan ushbu masalaga qaratilgani chuqur o‘ylangan, tahlil qilingan va aniq yechimga ega maqsadlarga erishishdagi muhim qarordir.

Shu bois, dasturda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash va ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, farmon loyihasi ilovalarida sifatli suv va energiya resurslarini boshqarish, yashil texnologiyalarni qo‘llash, hududlarni ekologik muammolardan xoli qilish, irrigatsiya tizimlari va suv tejash texnologiyalarini keng joriy etish ko‘zda tutilgan. Atrof-muhitga zararli qurilish ishlarini va resurs isrofini cheklash, energiya tizimlarini modernizatsiya qilish, yashil hududlar ko‘lamini kengaytirishga doir aniq strategik maqsadlar belgilangan. Bu chora-tadbirlarning har biri ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu maqsadlarga erishish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalari rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turizm sohasida esa ekologik barqarorlikni ta’minlash va “yashil turizm”ni rivojlantirish orqali mamlakatning turistik jozibadorligini oshiradi.

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha belgilangan vazifalar mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasiga mos keladi. Bu, ayniqsa, Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarni bajarishda muhimdir. Kioto protokoli va Parij bitimi doirasidagi majburiyatlar asosida iqlim o‘zgarishiga moslashuv choralari va issiqxona gazlarini qisqartirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish iqtisodiyotning ekologik samaradorligini yuksaltiradi.

Quyosh va shamol energiyasi stansiyalari qurilishi, kichik gidroelektrostansiyalar rivojlanishi hamda “yashil tarif”larni joriy etish energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojni ekologik talablarga muvofiq qondirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, insonlar salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini targ‘ib qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash dasturning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Chunki insonning ekologik turmush tarziga amal qilishi tabiatga salbiy ta’sirni kamaytirsa, ekologik xavfsizlikni ta’minlash orqali esa tibbiy xizmatlarga sarflanadigan xarajatlarni tejash mumkin. Bu orqali aholining hayot sifati yaxshilanadi. Umuman olganda, salomatlik va ekologik xavfsizlik faqatgina shaxsiy manfaat emas, balki jamiyatning umumiy barqarorligi va kelajagi uchun asosiy omillardir. Ular davlat va jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutadi.

> **Davlat dasturi bilan belgilab olingan vazifalarning amaliy ijrosi atrof-muhitni muhofaza qilish orqali tabiiy resurslarni samarali boshqarish va kelajak avlod uchun ularni saqlab qolish imkonini beradi. Iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini yumshatishga qaratilgan loyihalar tabiat muhofazasiga xizmat qiladi.**

Shuningdek, “yashil texnologiyalar”ni joriy qilish barqaror rivojlanishni ta’minlaydi va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish hajmini oshirish orqali iqtisodiyotning tabiatga zarar keltirmay rivojlanishiga erishiladi. “Yashil” iqtisodiyotni joriy qilish yangi sanoatlar va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirib, yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Eng muhimi, belgilab olingan maqsadlar va ustuvor vazifalar hududlardagi “yashil rivojlanish” dasturlari mahalliy darajada ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va aholining turmush darajasini oshirishga hissa qo‘shadi.

Jarayonda jamoatchilik orasida ekologik madaniyatni targ‘ib qilish va ekologik mas’uliyatni oshirish g‘oyat muhim. Shu bois, ekofaollar va jamoat tashkilotlarining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash “yashil” iqtisodiyot g‘oyasini ommalashtirishda katta ahamiyatga egaligi hisobga olinib, davlat dasturida aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili uchun ishlab chiqilgan dastur mamlakatimizda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda yangi bosqichni boshlab beradi. Ushbu hujjat nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki iqtisodiy yuksalish, ijtimoiy adolat va salomatlikni yaxshilash orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Uning samarali amalga oshirilishi esa O‘zbekistonni mintaqadagi “yashil” iqtisodiyot va ekologik rivojlanishning namunasiga aylantiradi.

“YASHIL TADBIRKOR” PLATFORMASI TADBIRKORLARGA YANGI IMKONIYATLAR BERADI

Dilmurod ORTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Dastur loyihasi Jahon bankining umume’tirof etilgan — mahallalarning ekologik qiyofasi va aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta’minlash, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish kabi tavsiyalari asosida tizimlashtirildi.

Loyihaning birgina atrof-muhitni asrash yo‘nalishida ko‘plab masalalar qatori “Yashil tadbirkor” platformasini ishga tushirish ham nazarda tutilmoqda.

Shu o‘rinda “Yashil tadbirkor” platformasi nima va u tadbirkorlarga qanday imkoniyatlar beradi, degan savol tug‘ilishi mumkin.

U tadbirkorlik subyektlarini “yashil tadbirkor” sifatida e’tirof etishni nazarda tutuvchi platforma bo‘lib, loyihada “yashil tadbirkor” maqomini olish talablari va buning natijasida unga nisbatan qo‘llab-quvvatlov choralari aks etmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari esa quyidagi yo‘nalishlarda belgilangan ko‘rsatkichlarni bajargan taqdirda mazkur maqomga ega bo‘lishi nazarda tutilmoqda:

birinchidan, ko‘kalamzorlashtirish, jumladan, korxonani “yashil belbog‘” bilan o‘rash, sug‘orish tizimlarini o‘rnatish, tomchilatish, yomg‘irlatish va konteynerli (qopli) sug‘orish tizimini joriy qilish;

ikkinchidan, energiya tejamkorligi, jumladan, energiya tejovchi uskuna va texnologiyalarni joriy qilish;

uchinchidan, korxonaning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish, jumladan, ekologik huquqbuzarlik sodir etmaslik, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish;

to‘rtinchidan, ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish (7R) tamoyilini tatbiq etish.

> **“Yashil tadbirkor” maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlar ko‘plab qo‘llab-quvvatlovlarga ega bo‘ladi. Eng avvalo, bunday tadbirkorlarga “Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik beriladi. Shuningdek, muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etiladi.**

Qolaversa, xalqaro bozorlarga chiqishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ularning barqarorlik reytingi doirasida qo‘shimcha ball berish nazarda tutilmoqda. Bu qo‘llab-quvvatlash choralari tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasiz.

Umuman olganda, dastur loyihasida ilgari surilayotgan barcha takliflar, birinchi navbatda, xalqimiz farovonligini ta’minlash va fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini amalda ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Eng muhimi, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti rivoji yangi bosqichga olib chiqiladi.

> **Quyosh va shamol energiyasi stansiyalari qurilishi, kichik gidroelektrostansiyalar rivojlanishi hamda “yashil tarif”larni joriy etish energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojni ekologik talablarga muvofiq qondirishga xizmat qiladi.**

* * *

Loyiha muhokamasi shu yil 22-yanvarga qadar davom etishi ko‘zda tutilgan. Ushbu muhim hujjatning qabul qilinishi esa xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, barcha yurtdoshlarimizni muhokamalar jarayonida faol ishtirok etishga chorlaymiz. Zero, bu jarayondagi ishtirokingiz, har bir taklif va tavsiyangiz xalqimiz orzu qilgan erkin, farovon va ochiq jamiyat, yuksak taraqqiy etgan qudratli davlat barpo etish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA tayyorladi.

Kambag‘allikdan farovonlik sari!

MARRANI BALAND OLDIK

Ilhomjon RAHMATOV,
Namangan viloyati hokimi matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi

Mahallaning o‘sish nuqtasi to‘g‘ri tanlansa va qo‘llab-quvvatlansa, natija kutilganidek bo‘ladi. Bunga Namangan viloyatida 2024-yilda erishilgan yutuqlar yaqqol misol. Keling, mavzuni uzoqdan boshlamay, aniq raqamlarga e’tibor qaratsak.

Viloyatdagi 788 ta mahallaning 621 tasi to‘liq drayver yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashtirildi. Shundan 36 tasida hunarmandlik, 69 tasida tikuvchilik va ishlab chiqarish, 112 tasida gulchilik, 46 tasida issiqxonachilik, 35 tasida dehqonchilik, 42 tasida bog‘dorchilik, 35 tasida uzumchilik ommalashgan. Hatto echkichilik, qo‘ychilik, baliqchilik keng tarqalgan mahallalar ham bor.

Xo‘sh, samara qanday, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Buning javobi ham aniq. Yana raqamlarga e’tibor bering: 2021-yilda kambag‘al oilalar soni 104,5 ming (15,7 foiz)ni tashkil etgan bo‘lsa, har bir xonadon bilan manzilli ishlash natijasida 32 mingdan ortiq oila (142 ming kishi) kambag‘allikdan chiqarildi.

Masalan, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Toshloq mahallasining drayveri — qo‘ychilik. Buning ortidan mahallada yashovchilar bandligi ta’minlangan, durustgina daromadga ham ega bo‘lmoqda.

— Hozir izlangan, harakat qilgan odam uchun katta imkoniyatlar bor, — deydi shu mahallada yashovchi Turdimat Mirzaqulov. — Yoshligimdan qo‘y boqishga qiziqqanim uchun oila qurgach, buni tirikchilik manbaiga aylantirdim. Hovlimdagi 3 sotix maydonda qo‘yxona qurdim. O‘rtacha 100 bosh qo‘y saqlayman. Shuning ortidan ro‘zg‘or but, oilam to‘kis. Mahallamizning yarmidan ko‘pi shu ish bilan mashg‘ul. 10 dan ortiq shogird tayyorladim.

Oxirgi 2 yilda birgina ushbu mahallaning o‘zida qo‘ychilik bilan shug‘ullanadigan 51 yirik tadbirkor paydo bo‘ldi. Mahalla fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchisi Bahrom Tojiahmedovning aytishicha, 511 xonadonning qay biriga kirsangiz, albatta, kamida 4-5 bosh qo‘y parvarishlanayotganiga guvoh bo‘lasiz. Ularga kredit berish va tajribali tadbirkorlarga biriktirish orqali ushbu yo‘nalish ommalashtirilgan. Shu bois, ishsiz odamning o‘zi yo‘q. Aholining yashash sharoiti ham shunga yarasha yaxshilanib bormoqda.

Hokim yordamchisi odamlarning turmush sharoiti sezilarli darajada o‘zgarib, yaxshilanib borayotganiga ko‘plab misollar keltirdi. Eshitib, mahalladagi ahillik, uyushqoqlikka havas qildik. Masalan, kuzda

Toshloqning 3,2 kilometrlik ichki yo‘li to‘liq asfaltlanibdi. E’tiborlisi, bu ish davlat tomonidan emas, aynan mahalla ahlining o‘zaro birdamligi, shaxsiy mablag‘i asosida bajarilgan.

— Mahalla yo‘liga asfalt yotqizish bilan bog‘liq ishlar uchun homiylik mablag‘i shakllantirishga tadbirkorlar birinchilardan bo‘lib hissa qo‘shdi, — deydi mehnat faxriysi G‘ulomjon Xudoyberganov. — Qo‘ychilik bilan shug‘ullanayotganlarning har biri 50-60 million so‘mdan yordam qildi. O‘ziga to‘q ko‘plab xonadonlar ular safiga qo‘shildi. Keksalar duoda. Ayniqsa, ikkita maktabga ravon yo‘ldan yurib o‘qishga qatnayotgan farzandlarimizning quvonganini aytmaysizmi!

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” tamoyilining asosiy maqsadi shu-da: odamlar band bo‘lsa, yaxshi daromad topsa, shunga yarasha yashaydi va hududini ham obod qiladi. Xo‘sh, oldiga aniq maqsad qo‘yib, ish boshlashni niyat qilgan kishida mablag‘ bo‘lmasa-chi? Bundaylar kammi?!

> **Yana raqamlarga yuzlanamiz. Namangan viloyatida 2020-2024-yillarda tijorat banklari tomonidan 538,5 mingdan ortiq fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga 30,1 trillion so‘mlik kredit ajratildi. Bunda eng asosiy e’tibor oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, drayver sohalarni ommalashtirishga qaratilgan. Yangi yilda esa bu kabi moliyaviy qo‘llab-quvvatlov hajmi yanada oshadi.**

— Bu jarayonda sharoit va imkoniyat e’tiborga olinib, aholini qiziqtirish orqali tadbirkorlar safini kengaytirish maqsad qilingan, — deydi Markaziy bankning Namangan viloyati bosh boshqarmasi

boshlig‘i Bekzod Sulaymonov. — Masalan, Norin tumanidagi 116 ta meliorativ tik quduqdan 34 tasida baliq yetishtirish loyihasi boshlandi. Yangi yilda yana 82 tasida davlat-xususiy sheriklik asosida loyiha qilish rejalashtirilyapti. Xususan, 3,8 million dollar miqdorida investitsiya kiritish, 450 ta yangi ish o‘rni ochish va yiliga 2,9 ming tonna baliq yetishtirish nazarda tutilmoqda. Shu ishlarga bank tizimi bevosita bosh-qosh bo‘lmoqda.

Hozir ayni o‘tgan yil sarhisobidan kelib chiqib, yangi yil uchun belgilangan rejalarga yeng shimaradigan va katta shijoat bilan kirishadigan palla. Namanganliklar ham o‘tgan davrdagi yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, 2025-yil uchun katta maqsad va vazifalarni belgilab oldi. Keling, shu o‘rinda ularning ba’zilari bilan tanishtirib o‘taylik.

Eng avvalo, Toshkent viloyatining Angren shahridan Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanigacha bo‘lgan 100 kilometr masofada yo‘l bo‘yi infratuzilmasi tashkil qilish uchun “master reja” ishlab chiqilmoqda. Uning birinchi bosqichida umumiy qiymati 220 million dollarlik 300 ga yaqin loyiha amalga oshirilib, 5 mingta yangi ish o‘rni ochiladi, mahalliy byudjetga 550 milliard so‘mdan ortiq qo‘shimcha tushum bo‘ladi.

Yana bir katta yo‘nalish “24/7 servis ko‘chalari” tashkil etishdir. Uychi, Namangan, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on va Yangiqo‘rg‘on tumanlariga olib boruvchi yo‘llar bo‘yida 285 million dollarlik investitsiya hisobiga 1,6 mingta xizmat ko‘rsatish shoxobchasi tashkil qilinadi. Bu orqali 9 mingta yangi ish o‘rni ochish ko‘zlanmoqda. Shundan kelib chiqib, Namangan shahrini unga chegaradosh 5 ta tuman bilan bog‘lovchi yo‘llar bo‘yida “24/7 servis ko‘chalari”ni barpo qilishga kirishilmoqda.

Eng asosiysi, 2025-2026-yillarda qolgan 267 ta mahallaning ham drayver yo‘nalishlari to‘liq ixtisoslashtiriladi. Buning uchun aniq rejalar tuzilib, loyihalar tayyorlanmoqda. E’tiborli jihati, bu loyihalarning aksariyati qayta-qayta ko‘rilyapti, yetti o‘lchab, bir kesilmoqda. Chunki marra baland olingan. Ularni hayotga tatbiq etish uchun sharoit ham, shijoat ham yetarli.

Inson qadri uchun

JIZZAX VILOYATI: ISLOHOTLAR RAQAMLARDA EMAS, ODAMLAR TURMUSHIDA AKS ETMOQDA

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

— To‘g‘risi, bundan besh yil oldin Jizzaxda avtomobil ishlab chiqarilishini ko‘pchilik tasavvuriga sig‘dirolmasdi, — deydi Jizzax shahri hokimligi huzuridagi jamoatchilik nazorati kengashi raisi Hamroqul Mamatqulov. — Prezidentimizning 2021-yili tadbirkorlar bilan muloqotida Jizzaxda hech kim tasavvur qilmagan 2-3 ta avtomobil zavodi ochilayotgani ma’lum qilingandi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, Jizzax erkin iqtisodiy zonasida “ADM Jizzakh” avtomobilsozlik zavodi ishga tushirildi. Ayni paytda “Kia”, “Chery”, “Haval” kabi brendlar ostida o‘ndan ortiq modelda zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. O‘tgan yili Prezidentimizning yana bir tashabbusi bilan “BYD Uzbekistan Factory” zavodi ochilgani esa mamlakatimizda avtomobilsozlik sanoatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu zavodda dastlab yiliga 50 ming dona, loyiha to‘liq ishga tushgach esa 300 ming dona gibrid va elektr avtomobil ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, keyingi bosqichlarda elektrobus, dvigatel, elektrodvigatel, avtomobil akkumulyatori uchun batareya ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Birgina “ADM Jizzakh” MCHJ tomonidan bugungacha 19,3 trillion so‘mlik 58 mingdan ortiq avtomobil ishlab chiqarilgan. Byudjetga 3 trillion so‘mlik soliq va boshqa to‘lovlar to‘langan. Ushbu zavodlarda uch yarim mingta yangi ish o‘rni ochilishi hisobiga aholi bandligi ta’minlangan. Bu shuncha oilaning doimiy daromadga egaligi, “qora qozoni” qaynashini bildiradi.

— Yo‘llarda zavodimizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarni ko‘rsam, faxrlanaman, — deydi “ADM Jizzakh” MCHJ ishchisi O‘ktam Ochilov. — Rossiyada bo‘yoq zavodida ishlardim. Ishimiz og‘ir bo‘lmasa ham sog‘liq uchun zararli edi. 2020-yili mehnat ta’tiliga chiqib, uyga keldim. Jizzaxda avtomobil zavodi ochilayotganini eshitib, hujjatlarimni topshirdim. Suhbatdan o‘tib, mana to‘rt yildan beri ishlayapman. To‘g‘ri, chet eldagidek oylik olmasam ham, eng muhimi, oilam bag‘ridaman. Farzandlarim tarbiyasi bilan shug‘ullanyapman, kelajakda elimiz, vatanimiz koriga yaraydigan farzandlar qilib tarbiyalayapman. Ular bizdan-da baxtli, saodatli yashashiga ishonaman.

Mamlakatimiz yuqori sur’atda rivojlanmoqda. Misol uchun, birgina o‘tgan yili mazkur zavodga 226 million dollarlik investitsiya kiritilib, avtomobil ishlab chiqarish faoliyatining ikkinchi bosqichi ishga tushirildi. Yillik avtomobil ishlab chiqarish quvvati 25 ming donadan 75 ming donaga yetkazildi hamda 1300 ta yangi ish o‘rni ochildi. Bundan tashqari, zavod rahbariyati dunyoda elektromobilga talab oshib borayotganini hisobga olib, uchinchi bosqichda yangi energiya manbalari asosida harakatlanadigan avtomobillar ishlab chiqarish ustida ishlayapti. Bu ham davlatimiz xazinasi uchun qo‘shimcha daromad, ham yangi ish o‘rinlari degani.

Ha, keyingi yillarda ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi, tadbirkorlar va investorlarga keng imkoniyat yaratilgani sababli ishbilarmonlar hech ikkilanmay yirik loyihalarni amalga oshirishga bel bog‘lamoqda. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning iqtisodiy o‘sish sur’ati oshishiga xizmat qilmoqda. Misol uchun, birgina Jizzax viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish qiymati 2017-yilda 2,5 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan yil yakunida bu ko‘rsatkich qariyb 23 trillion so‘mdan oshdi. Viloyatda sanoat korxonalari soni 2017-yilda 1676 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuni bo‘yicha 3474 taga ko‘payib, 5150 taga yetdi.

Ahamiyatlisi, xorijiy investitsiya salmog‘i ham ortib bormoqda. 2017-yilda 35,3 million dollar, 2023-yilda 684 million dollar xorijiy investitsiya jalb etilgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 1 milliard dollardan oshgan. Jumladan, Jizzax shahrida xitoylik investorlar “Mingyuan silu industry” qo‘shma korxonasida qiymati 50 million dollarlik, quvvati 8 million kvadrat metr keng turdagi oyna mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirib, 250 kishilik yangi ish o‘rni ochdi.

Jizzax shahrida ko‘p yillardan beri foydalanilmay turgan “Sharof Rashidov nomidagi to‘qimachilik kombinati” MCHJda qiymati 81 million dollarlik, quvvati 12 ming tonna ip-kalava, 5,5 ming tonna trikotaj mato ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 500 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, Forish tumanida “Jizzax sement” MCHJ tomonidan qiymati 150 million dollarlik, quvvati 2 million tonna ko‘mir yoqilg‘isi asosida yuqori sifatli sement ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 45 ta yangi ish o‘rni ochildi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili tamal toshini qo‘ygan “Zomin texnoparki”da ham xitoylik investorlar tomonidan qiymati 180 million dollarlik 5 ta investitsiya loyihasida amaliy ishlar boshlangan.

Viloyat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun eng ko‘p xorijiy investitsiya jalb qilgan tadbirkorlik subyektlaridan biri “Basalt Uzbekistan” klaster kompaniyasi hisoblanadi. Ushbu klaster o‘z tarkibidagi “Rockfiber” MCHJ QK, “Geobasalt Products” MCHJ QK, “Ecobasalt Group” MCHJ QK, “Goldfiber Pro” MCHJ, “Basalt Wool” MCHJ QK, “Basfiber Trade” MCHJlarini rivojlantirish, bazalt toshidan uzluksiz ravishda bazalt tolasi, direkt roving, bazalt fibrasi, armatura, kompozit geosetka, quvurlar, mato va bazalt toshidan tayyorlangan issiqlik-izolyatsiya plitalari kabi milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihalari uchun Rossiya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Latviya, Qozog‘iston, Angliya, Shveysariya davlatlaridan 474,8 million dollar miqdorida investitsiya jalb qildi. Natijada 1187 ta yangi ish o‘rni yaratib, 2017-yildan 2024-yilning oxirigacha davlatimiz xazinasiga 10 milliard so‘mdan ortiq soliq va boshqa to‘lovlar to‘lagan.

Yaqin yillargacha mahalliy sanoatda ko‘zga tashlanmagan ushbu tarmoq dunyo nigohini o‘ziga qaratmoqda. Jizzaxning sanoatdagi “tashrif qog‘ozi”ga aylangan yirik klasterda ishlab chiqarilayotgan keng turdagi energiyatejamkor mahsulotlar bugun jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu mahsulotlardan qurilish, sanoat bilan birga avtomobilsozlik, kemasozlik va aviasozlikda ham muhim ashyo sifatida foydalanilmoqda.



— Prezidentimizning 2019-yil yanvarda korxonamizga tashrifi hamda ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlar turini oshirish bo‘yicha topshiriqlari faoliyatimizni yanada kengaytirish, ko‘proq xorijiy sarmoya jalb qilishga turtki bo‘ldi, — deydi “Basalt Uzbekistan” klasteri ta’sischisi Alisher Kuchkunov. — Mahsulotimiz ekologik toza, tarkibining 97 foizini tosh va 3 foizini kimyoviy bog‘lovchilar tashkil etadi. Foydalanish jarayonida bazalt plitasi parchalanmaydi va hech qanday allergik reaksiyaga sabab bo‘lmaydi. Metall mahsulotlardan 50 foiz arzon, yuqori sifatli metall mahsulotlardan 3 barobar mustahkam, metall quvurlardan 4 barobar, cho‘yan quvurlardan 8 barobar, beton quvurlardan 10 barobar yengil. Bazalt plitasi harorat o‘zgarishidan yaxshi himoya qiladi. Qishda uyda issiqlikni va yozda salqinlikni saqlashga, elektr energiyasi bilan isitish yoki konditsioner xarajatini 30 dan 40 foizgacha kamaytirishga yordam beradi. Shu sabab ushbu mahsulotlarga mamlakatimizda ham, xorijda ham talab yuqori. Mahsulotimizning qariyb 90 foizi AQSH, Yevropa va MDH mamlakatlariga eksport qilinyapti.

Ushbu sanoat klasteri tarkibidagi korxonalarda toshni eritib, undan bazalt tolasi ishlab chiqarishdan to boshqa turdagi mahsulotlarni tayyorlashgacha bo‘lgan jarayonda asosan mahalliy yoshlar mehnat qilmoqda.

— Bu korxonaning ochilishi men kabi yuzlab forishlik yoshlar hayotini o‘zgartirib yubordi, — deydi korxona ishchisi Nusrat Ahmedov. — To‘g‘risi, ko‘p tengdoshlarim ishsizlikdan chet elga ketardi. Oilasidan, ota-onasidan, vatandan uzoqda ishlashning o‘ziga yarasha mashaqqati bor. Endi ovora bo‘lib, chet elga ish izlab ketishga zarurat qolmadi. Shaxsan o‘zim yetarli miqdorda maosh olaman. Mana shu joylarda biz mol boqib, shu toshlarni o‘ynab katta bo‘lganmiz. Ammo toshdan shuncha mahsulot ishlab chiqarilishini xayolimizga ham keltirmaganmiz. 2019-yilda ishga kelganimda bu yerda montaj ishlari bajarilayotgan edi. Zavodimiz 2021-yil sentyabrda ishga tushirildi. O‘shandan beri zavodning ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i vazifasida mehnat qilib kelyapman.

— Cho‘lda mana shunday zavodlar ochilishini hech kim tasavvur qilmagandi, — deydi mehnat faxriysi Ulashboy Xo‘rozov. — Toshdan qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarishning o‘zi mo‘jiza-ku. Zafarobod tumanining Forish bilan chegarasida 2014-yili Jizzax sement zavodi ochilib, ko‘plab yoshlar ish bilan ta’minlandi. Xursand bo‘lib, qani Forishda ham shunday zavodlar qurilsa deb niyat qilgan edik. Qarangki, mamlakatimizda yangi davr boshlangach, niyatimiz amalga oshib, Forishda ham mana shu cho‘l bag‘rida bazalt, sement, ohak zavodlari qurildi. Bundan tashqari, tik quduqlar qazilib, yuzlab gektar bekor yotgan yerda bog‘ va tokzorlar barpo qilindi. Minglab yoshlar ish bilan ta’minlandi. Buni faqat Forish misolida aytyapman. Viloyatda qilinayotgan ishlarni aytsam, katta doston bo‘ladi. Davlatimiz rahbari 2019-yili viloyatlik saylovchilar bilan uchrashuvda “Jizzax viloyatini, avvalo, “zamonaviy sanoat karvonboshilari”dan biriga aylantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratamiz”, degan edi. Bugun ushbu so‘zlar amalga oshyapti.

Yurt obodligi, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi islohotlar Jizzax va jizzaxliklar hayotida ham o‘z ifodasini topmoqda. Yangi yilda viloyat ahli yuqori marralarini zabt etishga, vatanimiz ravnaqi va taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnat qilishga bel bog‘lagan.

Bunyodkorlik

QO‘NG‘IROT — BEYNEU YO‘LI

1 milliondan ziyod aholining hayotini o‘zgartirmoqda

Ulug‘bek JALMENOV,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputati,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Qoraqalpog‘iston kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Bularning bari, bir nafasda aytilganda, jo‘n eshitilishi mumkin. Lekin atrofdagi o‘zgarishlar va yangi hayot shukuhini o‘z tanasida his qilib yashayotgan insonlar quvonchini qalban anglasangiz, o‘tgan sakkiz yilda davlatimiz rahbari boshchiligida biz erishgan yutuqlarning qanchalik olamshumul ekanini tushunish mumkin bo‘ladi.

Hozir shular haqida o‘ylar ekanman, beixtiyor yaqinda Prezidentimiz topshirig‘i bilan foydalanishga topshirilgan Qo‘ng‘irot — Beyneu avtomobil yo‘li ko‘z oldimga keldi. Bu bejiz emas. Sababi 2024-yil 25-oktabr kuni ochilgan Qo‘ng‘irot — Beyneu avtomobil yo‘lining yangidan qurilgan 240 kilometrlik qismi bugun To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Beruniy, Nukus, Xo‘jayli, Shumanay, Qonliko‘l, Qorao‘zak va Qo‘ng‘irot tumanlaridagi 1 milliondan ziyod aholi hayotini o‘zgartirib yubormoqda.

Albatta, yangi ta’mirlangan yo‘lning iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirishi alohida mavzu. Lekin biz bugun mazkur yo‘l bo‘yida yashayotgan aholi hayotiga daxldor jihatlarga ko‘proq to‘xtalishni maqsad qildik.

Gap shundaki, Qo‘ng‘irot — Beyneu avtomobil yo‘li mamlakatimizni Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan strategik avtomagistral hisoblanadi. Lekin u uzoq yillik e’tiborsizlik va mintaqaning keskin kontinental iqlimi tufayli yaroqsiz ahvolga kelib qolgan edi. Qishda bu yo‘lda umuman yurib bo‘lmasdi. Yozda mashinalar qumga botib qolardi. Ko‘p hollarda yo‘lda buzilib qolgan avtoulovlar manziliga vaqtida yetib borolmasdi.

Ayniqsa, yo‘l atrofidagi To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Beruniy, Nukus, Xo‘jayli, Shumanay, Qonliko‘l, Qorao‘zak va Qo‘ng‘irot tumanlaridagi odamlar bunday noqulaylikdan ko‘p qiynalardi. Deylik, Qo‘ng‘irot tumanining eng olis manzilidagi posyolkadagilar ahvolini endi tasavvur qilavering. Uzoq yillardan buyon aholini qiynab kelayotgan, yozning chillasida chang, yog‘ingarchilik kunlari botqoqqa aylanadigan ushbu manzillarda bugun vaziyat tubdan o‘zgardi.

> **“ Qo‘ng‘irot — Beyneu avtomobil yo‘lining 240 kilometrlik qismi foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimiz hududidan xalqaro tashuv masofasi 1000 kilometrgacha, transport xarajati esa 25 foizgacha kamaydi. Bu yo‘l yurtimizni Kaspiy va Qora dengiz portlari orqali Yevropa bozori bilan ishonchli bog‘laydigan logistika tarmog‘iga aylanmoqda.**

Yana bir gap. Qo‘ng‘irot — Beyneu avtomobil yo‘lining 240 kilometrlik qismi foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimiz hududidan xalqaro tashuv masofasi 1000 kilometrgacha, transport xarajati esa 25 foizgacha kamaydi. Bu yo‘l yurtimizni Kaspiy va Qora dengiz portlari orqali Yevropa bozori bilan ishonchli bog‘laydigan logistika tarmog‘iga aylanmoqda. Yana bir muhim jihati — A-380 xalqaro yo‘lagining O‘zbekistondan o‘tgan qismida kunlik transport qatnovi 3 karra oshdi. Shu bilan birga, u Transkaspiy xalqaro transport koridoriga olib chiquvchi eng yaqin yo‘l. Yangidan qurilgan yo‘lning yuk ko‘tarish imkoniyati 8 tonnadan 13 tonnagacha oshirildi.

“Yo‘l va ko‘prik qurib, odamlarning uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilish eng savobli ishlar qatorida turadi. Biz bunyodkor yo‘lsozlarning timsolida ana shunday olijanob, elning duosi va rahmatiga sazovor bo‘lib kelayotgan zahmatkash insonlarni ko‘ramiz. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladigan bunday ezgu ishlarimiz yanada ko‘paysin”, degan edi davlatimiz rahbari ushbu yo‘lning ochilish marosimida.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Biz yuqorida Qo‘ng‘irot — Beyneu avtomobil yo‘lining yangidan qurilgan qismi 1 milliondan ziyod aholi hayotini o‘zgartiradi, dedik. Buning iqtisodiy asoslari bor.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, yangi yo‘l atrofida 200 dan ortiq savdo-servis obyekti va sanoat korxonasi paydo bo‘ladi. Shuning hisobidan dastlab 2000 ta, kelgusida esa yana 5000 ta ish o‘rni ochiladi. Shu tariqa Qoraqalpog‘istonda tranzit va boshqa xizmatlar qiymati yiliga 200 million dollarga, mamlakatimiz eksporti esa kamida 300 million dollarga oshishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Qadim tarixdan ma’lumki, yo‘l bilan birga ovulma-ovul, shaharma-shahar, davlatma-davlat sivilizatsiya, g‘oyalar, tashabbuslar ham kirib kelaveradi. Shunday ekan, mazkur avtomobil yo‘lining yangidan qurilgan qismi atrofida yashab kelayotgan aholi ham yangicha yashash tarziga o‘tadi. Endi ular bu yo‘l bo‘yida o‘z biznesini ochishi, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatib, doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi tabiiy. Mahalliy aholi tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yib, avtotransportlarga xizmat ko‘rsatsa, yana ba’zilari yo‘lovchilar uchun ovqatlanish shoxobchasi ochib, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantiradi.

Yo‘l tekis bo‘lsa, ko‘zlangan manzilga bexavotir, ko‘ngil xotirjam yetib boramiz. Ravon yo‘ldan yurgan avtoulovlarning yaroqliligi ham ortib, texnik nosozliklarga uchrash holati, yo‘l-transport hodisalari keskin kamayadi. Oxirgi marta 1988-yili ta’mirlangan ushbu yo‘l yillar davomida katta muammolarni keltirib chiqargan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar asosida barpo etilgach, mamlakatimizni Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan strategik avtomagistralga aylandi.

Bir so‘z bilan aytganda, bu yo‘l ko‘p yillar xalqimizning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengillatishga xizmat qilishiga ishonamiz.

Dolzarb mavzu

BIOGUMUSNI KO‘PAYTIRISH
qo‘shimcha daromad va kambag‘allikdan chiqarish omili

G‘iyosjon RAHIMOV,
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Hozir mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan unumdorligi past, turli darajada sho‘rlangan, degradatsiyaga uchragan yerda bajarilishi muhim bo‘lgan agromeliorativ, agrotexnik va agronomik chora-tadbirlardan biri organik o‘g‘itlarni to‘g‘ri qo‘llashdir. Ayniqsa, tavsiya qilingan organik o‘g‘itlarni kechiktirmay, unumdorligi past yerga berish birinchi galdagi vazifalar sirasiga kiradi. Shu ma’noda, sug‘oriladigan yerda tuproq degradatsiyasini kamaytirish, undagi gumus miqdorini, unumdorligini oshirish, sog‘lomlashtirish orqali hosildorlikni ko‘paytirib, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish dolzarbligicha qolmoqda.

Ayni paytda hukumatimiz organik mahsulotlar yetishtirish uchun paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan maydonlar unumdorligini hamda gumus miqdorini oshirishni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratayotgani boisi shunda.

Tuproq unumdorligini, gumus miqdorini ko‘paytirish uchun “Biogumus”, “Veremikompost”, “Xlorella” organik bioo‘g‘itlari hamda organik-siderat ekinlar turidan foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar mavjud. Ularni qo‘llash, birinchi navbatda, tuproq unumdorligini oshiradi, yerni sog‘lomlashtiradi, sho‘rlangan, degradatsiyaga uchragan maydonlarni yana foydalanishga kiritishga xizmat qiladi. Tuproqda foydali, jonli mikroorganizmlar ko‘payib, gumus miqdorini oshirishga imkon beradi. Ayniqsa, sabzavot, poliz, kartoshka mahsulotlari tibbiy va standart talablarga mos ravishda me’yorida yetishtiriladi.

KALIFORNIYA CHUVALCHANGI YORDAMIDA ORGANIK O‘G‘IT ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Biogumus ekologik toza organik o‘g‘it bo‘lib, tuproqning unumdorligini oshiradi. Tuproq tarkibini donadorlik va ekologik jihatdan yaxshilaydigan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini rivojlantirish, hosildorligini oshirishda bebaho organik ozuqa. Biogumus — yomg‘ir chuvalchanglarining hayotiy faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan organik o‘g‘it.

Biogumus yetishtirishda keyingi yillarda yurtimizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlarida yomg‘ir chuvalchangi vakili — Kaliforniya qizil chuvalchangi yaxshi natija bermoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy universiteti olimlari hamda qator ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan ham mahalliy chuvalchanglardan foydalangan holda biogumus tayyorlash usullari yaratilgan.

Tuproqdagi chuvalchanglar organik moddalarni qayta ishlab, o‘simliklar oson “hazm” qiladigan holatga keltiradi. Yerning g‘ovakligini oshiradi, tuproqning fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilaydi.

Yomg‘ir chuvalchanglari, Kaliforniya qizil chuvalchangi va ularning mahalliy turi organik chiqindilar (chirindi, go‘ng, sabzavot va meva qoldig‘i, to‘kilgan barg, qog‘oz va hokazo)ni iste’mol qilib, ichakdan o‘tkazish jarayonida biologik faol moddalar bilan boyitadi. Natijada chuvalchang chiqindisi — kaprolit paydo bo‘ladi. Biogumus samaradorligi bo‘yicha har qanday organik o‘g‘itdan 15-20 marta afzal. Kaliforniya qizil chuvalchangi odatdagi tuproq chuvalchangidan tez ko‘payishi, serpushtligi va uzoq yashashi bilan farqlanadi. Kaliforniya qizil chuvalchangi uchun chirindi, go‘ng, organik qoldiqlar ozuqa vazifasini bajaradi. Chuvalchang hayot kechiradigan joy yumshoq, g‘ovak, nisbiy namligi 70 foiz, muhit neytral yoki kuchsiz ishqoriy, harorati 22-24°S bo‘lishi eng mo‘tadil sharoitdir. Chuvalchanglarning yashash sharoiti o‘zgarsa, kamayib ketadi. Kaliforniya chuvalchangi balog‘atga yetguncha 2-3 oy muddat kerak.

Kaliforniya qizil chuvalchangining o‘rtacha vazni 0,5 gramm bo‘lib, bir kecha-kunduz tanasida o‘z vazniga teng chirindi yoki go‘ngni o‘tkazib, biogumusga aylantiradi. Bir metr kvadratda 50 dona (1 gektarda 500 ming) bor, desak, bir kecha-kunduzda 1 gektarda chuvalchang ichidan 250 kilogramm substrat (biogumus) o‘tadi. Chuvalchangning faoliyati bir yilda 200 kun davom etishini hisobga olsak, uning ichagi orqali o‘tib, qayta ishlanadigan substrat 50 tonnaga yetadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, chuvalchang yerning sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

Mahalliy yomg‘ir chuvalchanglari, jumladan, Kaliforniya qizil chuvalchangi tagi tekis, betonlangan, eni 1-3 metr, uzunligi 6 metr (sharoitga qarab, undan ham uzun bo‘lishi mumkin) balandligi 0,6-0,7 metr bo‘lgan g‘aramlarda ko‘paytiriladi.

Kaliforniya qizil chuvalchangini qavat-qavat yog‘ochdan yasalgan oxurlarda, plastmassa yoki katta yog‘och qutilarda hamda zarang yerda eni 1-3 metr, uzunligi 10-15 metr balandligi 0,5-0,7 metr bo‘lgan g‘aramlarda ham yetishtirish mumkin. Chorva fermalaridan olingan go‘ng, qattiq organik qoldiqlar chuvalchangga ozuqa bo‘lishi uchun bir oz chirishi lozim.

SUV VA NAMLIKNI SAQLOVCHI FOYDALI BAKTERIYALAR MANBAI

Gumus suvda o‘z vaznini ushlab turadi. Shuningdek, u suvni saqlash hamda yetkazib berishga qaratilgan aniq usuldir. Kerak bo‘lganda o‘simliklar ildizi tuproqdagi gumusdan suv tortadi. Tuproqdagi organik moddalar(gumus)ning 1 foiz ko‘payishi har gektar yerda yana 170 ming litr suv singib ketmasligini anglatadi. Bu 1 kvadrat metr uchun 17 litr qo‘shimcha suv, degani. Bu yerda gumus ikki barobar foyda keltiradi. Chunki u qo‘shimcha namlik yutuvchi va saqlaydigan foydali bakteriyalar uyidir. Hozirgi sharoitda bu juda muhim.

Gumus qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilining ozuqaviy qiymatini yaxshilaydi. Shuningdek, u minerallarni saqlash va yetkazib berish uchun asosiy vositadir. Gumus tarkibidagi manfiy va musbat zaryadlar tuproqdagi barcha minerallarni o‘ziga jalb qilib, ushlab turadi. Ularning yuvilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Tuproq unumdorligini oshirishda biogumus organik o‘g‘itini qo‘llash eng samarali usul. Chunki u ekologik, organik o‘g‘it bo‘lib, tarkibida foydali mineral moddalar ko‘pligi bilan ajralib turadi. Biogumusning o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishiga fiziologik-biokimyoviy jihatdan ijobiy ta’sir qilishi hamda samaradorligi ilmiy asoslangan. Kaliforniya chuvalchangini boqish asosida biogumus olish bugun dunyo miqyosida mahalliy organik o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan birga eng yuqori darajadagi sifatli va kamxarajat organik o‘g‘it olish usullaridan.

Biogumus ishlab chiqarishni ko‘paytirib, unumdorligi past, gumus miqdori kam, turli darajada sho‘rlangan yerda qo‘llab, tuproq sho‘rlanishi va sho‘r yuvish tadbirlarini kamaytirish, paxta, g‘alla, sholi, makkajo‘xori, sabzavot va poliz ekinlari hosildorligini oshirib, ekologik toza mahsulot yetishtirish mumkin.

An’anaviy usulda yetishtirilganlariga nisbatan biogumus organik o‘g‘iti asosida yetishtirilgan mahsulotlar tarkibida mineral ko‘p bo‘ladi. Bunday oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida salomatlik uchun zararli moddalar, jumladan, pestitsid, fungitsid va gerbitsid kabilar yo‘q. Shu bilan birga, an’anaviy yetishtirilgan mahsulotlarga qaraganda ancha mazali. Bunday mahsulotlarni uzoqroq saqlash mumkin.

Bu usul organik dehqonchilik deyiladi. Organik dehqonchilik suvdan tejamli foydalanish, o‘g‘it va energiya uchun sarflanadigan xarajat kamligi, tuproqning yuqori unumdor qatlamini saqlab qolish hisobiga daromadni, sof foydani oshirish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun organik mahsulotlarga talab tobora ortmoqda.

Hozir qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yer resurslariga turli tabiiy va antropogen ta’sir kuchaymoqda. Natijada ekinlar rivojlanishdan, sifatli va yuqori hosil yetishtirishdan ortda qolmoqda. Tuproqda gumus miqdori belgilangan me’yordan muttasil kamayishi oqibatida unumdorlik va hosildorlik pasayib, suv taqchilligi kuchayib bormoqda. Chunki gumus miqdori kam bo‘lgan nosog‘lom tuproqda suv ushlab turish va namlikni saqlash qiyinlashadi. Ekinlarga berilayotgan azot, fosfor, kaliy kabi kimyoviy o‘g‘itlarning asosiy qismi yuvilib ketishi, tuproq sho‘rlanishi va degradatsiyasi tobora faollashadi. Bunday holatda dunyoda, jumladan, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanishda global muammo paydo bo‘ladi. Darhol oldi olinmasa, hech bir mintaqa yoki davlat o‘zini mazkur muammodan to‘liq himoyalangan deya olmaydi.

Shu bois, jahon miqyosida mahalliy organik o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan birga eng yuqori sifatli va kamxarajat organik o‘g‘it olish usullaridan biri — Kaliforniya chuvalchangini boqish asosida biogumus olishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Sog‘lom tuproqning bir grammida 3-3,3 milliard foydali mikroorganizm bo‘ladi. Shunga ko‘ra, har gektar yerda 6-9 million dona yomg‘ir chuvalchangi bo‘lishi lozim. Lekin yerga ko‘p miqdorda kimyoviy o‘g‘it, zaharli ximikat solinishi natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi hamda yomg‘ir chuvalchangi 70-90 foiz kamayib ketadi. Natijada hosildorlik va mahsulot sifati talab darajasida bo‘lmaydi.

Biogumus ekologik toza, tabiiy organik o‘g‘it. U tuproq unumdorligi, gumus miqdorini oshiradi. Sho‘rlanishni kamaytirib, yerning meliorativ holatini yaxshilaydi. O‘simlikning tez o‘sib rivojlanishi, hosilning 15-20 kun erta pishishini ta’minlaydi. Tuproqni toksikologik jihatdan yaxshilab, zararli mikroorganizmlar (zamburug‘, ildiz chiqarish kabi) va kasalliklardan tozalaydi. Yetishtirilgan barcha turdagi mahsulotlar standart talab darajasida, ekologik toza bo‘ladi. Qolaversa, uzoq saqlash va bozorlarda qimmat narxda sotish mumkin.

Tuproqdagi chuvalchanglar yerning tarkibini yaxshilaydi, g‘ovakligini oshiradi va yumshatadi. Bundan tashqari, tuproqdagi chirindilarni qayta ishlaydi. Ya’ni suv o‘simliklari, zamburug‘, har xil bakteriya va boshqa oddiy organizmlar, nematoda nomli chuvalchangsimonlarni iste’mol qiladi. Biogumus ishlab chiqaradi.

Biogumus tarkibidan mikroflora ko‘p miqdorda har xil ferment, aminokislota, vitamin va boshqa biologik faol moddalarni ajratib chiqaradi. Bularning hammasi o‘simlik dunyosi uchun qimmatbaho ozuqa manbaidir.

Jahon miqyosida mahalliy organik o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan birga eng yuqori sifatli va kamxarajat organik o‘g‘it olish usullaridan biri — Kaliforniya chuvalchangini boqish asosida biogumus olishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Aytishlaricha, 2 kvadrat metr joydagi chuvalchanglarni 5-6 oyda 10-15 kvadrat metrgacha ko‘paytirish mumkin. “Eko asr birlasiu” korporatsiyasi fuqarolardan bir kvadrat joydagi chuvalchangni 1,5 million so‘mdan, tayyor bo‘lgan 1 kilogramm biogumusni 2 ming so‘mdan sotib oladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu orqali bir xonadon har oyda o‘rtacha 4 million so‘m daromad topadi.

XONADONLARDA TAYYORLANAYOTGAN BIOGUMUSDAN OLINAYOTGAN FOYDA

Kaliforniya qizil chuvalchangini boqishda, avvalo, asosiy maqsadni aniqlashtirib olish kerak. Maqsad ona chuvalchang yetkazib berishmi yoki biogumus va biomassa ishlab chiqarishmi? Shundan kelib chiqib, uyalar soni va ular joylashtiriladigan maydon aniqlanadi. Kerakli uyalar soni va ulardagi chuvalchangning taxminiy miqdorini bilgan holda, kerakli ozuqa hajmini hisoblab chiqish qiyin emas. Ozuqa manbalari, shuningdek, suv ta’minoti belgilab olinadi.

Xonobodlik Rustam Usmonov seleksiya usulida Kaliforniya qizil chuvalchangining mahalliy chiqindi bilan oziqlanadigan turlarini ham ko‘paytirib, xonadonlarda biogumus yetishtiryapti. Bu organik o‘g‘itni qishloq xo‘jaligidagi barcha ekinlarda qo‘llashni yo‘lga qo‘ygan.

Uning metodikasi bo‘yicha bitta uya 1 kvadrat metrdan iborat bo‘lib, ustida 40-60 santimetr qalinlikdagi organik modda 70-75 kunda hosil bo‘ladi. Uyaga joylashtiriladigan chuvalchanglar soni 5-10 mingta oralig‘ida bo‘lishi tavsiya qilinadi. Voyaga yetgan chuvalchanglar tuxumi bilan birga bitta uyaga yiliga 5-6 sentner organik modda talab qilinadi. Shuning 60 foizi chuvalchanglar uchun sarflanadi, 40 foizi biogumus bo‘lib ajralib chiqadi. Har bir uyadan yiliga 2-3 sentner biogumus va 50 kilogrammga yaqin chuvalchang biomassasi olish mumkin. Bozor narxida 50 kilogramm biomassa o‘rtacha 2500 dollarga baholanadi. Eng muhim jihatlardan yana biri chuvalchang boqish uyalaridir. Ya’ni bioreaktorni qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz yerda joylashtirsa ham bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2022-yil 2-iyun sonida Qo‘ng‘irot tumanida “Eko asr birlasiu” korporatsiyasini tashkil qilgan Bayrambay Davlatov 70 dan ortiq ehtiyojmand xonadonga Kaliforniya qizil chuvalchangini tarqatib, biogumus organik o‘g‘itini yetishtirishni yo‘lga qo‘ygani haqida maqola chop etilgan edi. Bu — katta tashabbus. Chunki Qoraqalpog‘iston yerining katta qismi Orol fojiasi tufayli qattiq sho‘rlangan. Uni unumdor qilish uchun bunday tashabbuslar juda zarur. Qolaversa, bu orqali ko‘plab oilalar ishli, daromadli bo‘lishi mumkin.

Chuvalchangning eng sevimli ozuqasi —go‘ng. Qishloq sharoitida uni topish muammo emas. Shuningdek, bu ishda bino yoki katta dastgoh, qimmat uskunalarga zarurat yo‘q. Ishni uy sharoitida bemalol boshlash mumkin. Chuvalchang boqishni qaysi kun va qaysi oyda boshlash ham deyarli ahamiyatsiz. Eng qulay vaqt — bahor, kuz va yoz fasli.

Kaliforniya qizil chuvalchangi 100 dan ortiq xonadonga tarqatilsa, kamida 300 kishi ish bilan ta’minlanib, yil davomida 4-5 ming tonnadan ortiq biogumus organik o‘g‘itini tayyorlash mumkin. Aholi qo‘shimcha foyda olib, oilalarni kambag‘allikdan chiqarishga zamin yaratiladi.

Jahon bozorida biogumus asosida yetishtirilgan mahsulotlar go‘ng yoki mineral o‘g‘itlarda yetishtirilganiga nisbatan yuqori baholanadi. Bugun AQSHda 700 dan ortiq xo‘jalik chuvalchang yordamida organik chiqindini qayta ishlaydi. Fransiyada esa ushbu texnologiya bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni 2000 atrofida. Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Germaniya va Yevropaning boshqa davlatlarida biogumus ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar soni yildan yilga ko‘paymoqda. Shuningdek, Polsha, Vengriya, Chexiya va boshqa Sharqiy Yevropa davlatlarida ham bu usul rivojlanmoqda. Bular bejiz emas, albatta. Chunki mazkur usul serdaromad bo‘lishi bilan birga ijtimoiy jihatdan ham ahamiyati ortib bormoqda.

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz

Taraqqiyot odimlari

SAYYOHLIK RIVOJI BO‘YICHA ENG FAOL MAMLAKAT

O‘zbekiston qisqa muddatda bu maqomga qanday erishdi?

Umid SHODIYEV,
Turizm qo‘mitasi raisi

Бошланиши 1-бетда

O‘tgan yili 20-dekabrda Prezidentimiz raisligida tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yil yakunlari va 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor shaklidagi yig‘ilishda turizm yo‘nalishida qilingan ishlar haqida ham gap bordi. Qayd etilganidek, o‘tgan yili tadbirkorlarning 6,5 trillion so‘m sarmoyasi bilan 24 ming o‘rinli mehmonxonalar ishga tushirildi. Joriy yilda bu ishlar yanada kengayib, mehmon o‘rinlari yana 30 mingtaga oshishi, tadbirkorlar bunga 10 trillion so‘m investitsiya kiritishga tayyorligi, o‘tgan yili ishga tushgan 17 ta yirik savdo va sayyohlik maskaniga yana 25 ta shunday majmua qo‘shilishi qayd etildi.

Bo‘stonliqda 10 milliard dollarlik “Sea Breeze” nomli yirik markaz qurilishini boshlashga kelishib olingani, shuningdek, mamlakatimizga dunyoning nufuzli Swissôtel, Sheraton, Ritz-Carlton, Novotel, Pullman, Marriott, ibis, Mercure kabi 23 ta mehmonxona brendi kirib kelayotgani ta’kidlandi.

Xizmatlar eksporti 3 milliard dollarga yetdi

Mamlakatimizdagi mana shunday keng qamrovli tadbirlar natijasida turli davlatlar bilan o‘zaro aloqalar yanada rivojlanishi barobarida sayyohlik tarmog‘ida ham o‘sishga erishilmoqda. Xususan, 2024-yilning 11 oyi davomida yurtimizga 9,4 milliondan ziyod sayyoh kelgan. Vaholanki, 2016-yilda bu raqam 1,3 million, 2022-yilda esa 5,2 millionni tashkil etgan.

Sayyohlarga ko‘rsatilgan turizm xizmatlari eksporti esa 3 milliard dollarni tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobar o‘sdi. Yevropa, uzoq hamda qo‘shni davlatlardan keluvchi sayyohlarning o‘rtacha xarajati 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar ortdi.

Davlatimiz rahbarining sohani rivojlantirishga oid topshiriqlarini o‘z vaqtida ijro etish borasidagi ishlar natijasida xorijiy davlatlardan sayyohlar oqimini sezilarli oshirishga erishildi. Jumladan, Yevropa va uzoq davlatdan keluvchilar 5,3 foizdan 9 foizga oshdi.

Qo‘shni davlatlar va MDH mamlakatlaridan sayyohlar soni 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar, uzoq xorijdan keluvchilar 2,5 barobar ko‘paydi. Xitoydan 13, Italiyadan 4,3, Hindistondan 3,8, Germaniyadan 2,1, Turkiyadan 1,4 va Janubiy Koreyadan 2 barobar ko‘p sayyoh keldi. Indoneziyadan ziyorat turizmi maqsadida kelgan sayyohlar soni 14,6 va Malayziyadan keluvchilar soni 6,1 barobar ko‘paydi.

Sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi 762 ta yangi turistik tashkilot va turagent faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ular soni 3581 taga yetdi. Mamlakat bo‘ylab 3200 gid-ekskursovod faoliyat yuritmoqda. O‘tgan yilning o‘zida 700 gid-ekskursovod tayyorlandi.

Turoperatorlarni eksportoldi qo‘llab-quvvatlash maqsadida aylanma mablag‘ uchun jami 50 million dollarlik kredit 10 yil muddatga, 2 yil imtiyozli davr bilan ajratish yo‘lga qo‘yildi.

Samarali targ‘ibot sohani rivojlantirishning muhim omili

O‘zbekiston sayyohlik brendini xalqaro miqyosda faol targ‘ib qilmoqda. 2024-yilda yetakchi 16 mamlakatda bo‘lib o‘tgan 18 ta xalqaro yarmarkada milliy turizm stendi bilan ishtirok etdik. 12 ta davlat (Xitoy, Eron, Tojikiston, Buyuk Britaniya, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Kuvayt, Belarus, Vengriya, Janubiy Koreya, Rossiya)da “Road show”, madaniy va taqdimot tadbirlari o‘tkazildi. Yaponiya, Germaniya, Xitoy va AQSHda O‘zbekistonning turizm brendi elchisi va vakillari tayinlandi.

O‘tgan yil 25-26-aprel kunlari “Shahrisabz — Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining turizm poytaxti” xalqaro forumi va “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” shiori ostida 31-may-2-iyun kunlari Xiva shahrida Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar turizm vazirlari XII yig‘ilishi yuqori saviyada o‘tkazildi.

Yurtimizda ilk marotaba barcha hududlarda ichki turizm yarmarkalari tashkil etildi. Ushbu yarmarkalarga ichki turizm yo‘nalishidagi 1700 ga yaqin tadbirkorlik subyekti, 18 mingdan ortiq ishtirokchi keldi. Yarmarka doirasida ichki sayohatlarni tashkil etish bilan bog‘liq qiymati 20 milliard so‘mga yaqin 1300 dan ortiq shartnoma va bitimlar imzolandi.

“O‘zbekiston” brendi dunyo nigohida

Butunjahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga asosan, O‘zbekiston sayyohlik xizmatlaridan tushgan tushum (eksport) bo‘yicha dunyo bo‘ylab “ikkinchi eng yaxshi yo‘nalish” sifatida ko‘rsatildi. Tushumlar 2019-yilga nisbatan ikki barobardan ko‘proq (133 foiz) oshgan. O‘zbekiston sayyohlik eksporti oshishi bo‘yicha Yevropa destinatsiyalari o‘rtasida eng yaxshi ko‘rsatkichga erishdi.

Jahon iqtisodiy forumi e’lon qilgan “Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb topildi. Bu e’tirof mamlakatimizga xalqaro sayyohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e’tibor kuchayib borayotganini bildiradi.

Oktyabrda London shahri mezbonlik qilgan marosimda O‘zbekiston nufuzli “Wanderlust Reader Travel Awards 2024” mukofotining “Eng yaxshi rivojlanayotgan yo‘nalish” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi. Rossiyaning “Russian traveler” jurnali o‘tkazgan milliy turizm mukofoti tanlovi natijasiga ko‘ra, 2024-yilda “O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi sayohat yo‘nalishi” deb topildi.

O‘zbekistonning turistik brendini targ‘ib qilish sayyohlikni yanada rivojlantirishning muhim omili. Bu yo‘nalishdagi samarali targ‘ibot xalqaro va mahalliy sayyohlarni yanada ko‘p jalb etish, diqqatga sazovor joylar va O‘zbekiston madaniy merosi xilma-xilligi haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Shu maqsadda yurtimizning sayyohlik salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqasida keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Bu yo‘nalishda “World Media Group” va “Blue Sky”, “Sky one”, “Wanderlust”, “Euronews”, “BBC”, “National Geographic”, “CNN” “Travel Tomorrow”, “Warner Bros. Discovery”, “Saga travel Group” xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek, “Ctrip.com”, “Holiday factory”, “Voyage Prive” onlayn sayohat platformasi kabi qator xorijiy tashkilot va teledasturlar bilan shartnoma asosida xalqaro miqyosda mamlakatimizning imiji keng targ‘ib etildi. 20 dan ortiq davlatdan 100 dan ziyod xorijiy OAV vakili, bloger va inflyuyenserlar uchun O‘zbekiston bo‘ylab 24 ta info va press-tur tashkil qilindi.

Izlanish, imkoniyat va natija

Albatta, qisqa muddatda sayyohlik yo‘nalishida bunday salmoqli natijaga o‘z-o‘zidan erishilayotgani yo‘q. Prezidentimiz tashabbusi bilan sohadagi ishlar zamon talabidan kelib chiqib, muttasil takomillashtirib borilayotgani bu jarayondagi yutuqlarning muhim omili bo‘lmoqda. Bu xayrli ishlarni izchil davom ettirish doimiy e’tiborda.

Shu maqsadda o‘tgan yilda qo‘mitamiz tomonidan ishlab chiqilgan 18 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi o‘rnatilgan tartibda tasdiqlandi. Natijada sayyohlar uchun yaratilgan qator asosiy imkoniyat va qulayliklar ko‘lami kengaydi.

Viza. O‘zbekistonda turistlar uchun vizasiz rejim joriy etilgan. 90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz kirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, elektron viza tizimi joriy qilingan, bu esa sayyohlarning viza olishini osonlashtirdi.

Transport. Mamlakatimizda ichki transport infratuzilmasi ham tez rivojlanmoqda. Sayyohlar uchun aviareyslar, temir yo‘l hamda avtobus xizmati yaxshilangan. Bundan tashqari, taksi va karshering xizmatlari ham mavjud. Bu esa sayyohlar uchun harakatlanishni ancha qulaylashtiradi.

Infratuzilma. Yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun ko‘plab zamonaviy mehmonxonalar, kurortlar va sayyohlik markazlari ochildi. Mehmonxonalar zamonaviy xizmatlar, sport zallari, restoranlar va suv havzalari bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, xalqimizning mehmondo‘stligi ham sayyohlarning qiziqishi va intilishini oshiradigan muhim mezonlardan biri bo‘lmoqda.

Yo‘nalishlar. O‘zbekiston tarixiy va madaniy yo‘nalishlarga boy. Shu bilan birga, tabiat manzaralari va o‘ziga xos arxeologik yodgorliklarga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlardagi obidalar, madaniy tadbirlar sayyohlar uchun jozibali asosiy yo‘nalishlardir.

Ishlab chiqarish va savdo. Sayyohlar uchun suvenir va mahalliy mahsulotlarni sotib olish imkoniyati ham keng. Hududlarda turli marka va suvenir do‘konlari ochilgan, shuningdek, mahalliy qoliplar va an’anaviy hunarmandlik mahsulotlari keng tarqalgan.

Ta’lim va ekskursiya xizmatlari. Yurtimizda ekskursiya xizmati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Sayyohlarga professional gidlar xizmat ko‘rsatmoqda, ekskursiya va turlar tashkil etmoqda. Ular tarixiy yodgorliklar, madaniy tadbirlar va tabiatni tadqiq qilishda yordam beradi.

Raqamli xizmatlar. Turizmni rivojlantirish uchun raqamli xizmatlar joriy etilgan. Masalan, mobil ilovalar va turizmga oid onlayn platformalar orqali sayyohlar o‘z safari haqida ma’lumot olish, tur va xizmatlarni band qilish imkoniga ega.

Shu tariqa sayyohlarga qulayliklar yaratishga katta e’tibor berilmoqda. Bu esa mamlakatimizning sayyohlik sektoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Infratuzilma kengaymoqda

Turizm yo‘nalishida 2024-yilda amalga oshirilgan yangi loyihalarga alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, Toshkent shahrida Germaniyaning “Hyper Partners GmbH” kompaniyasining “Tashkent City Mall” brendi ostida biznes markazi, zamonaviy mehmonxona va turar joy hamda savdo markazi qurildi. 60 o‘rinli “Azhalil stroy” zamonaviy mehmonxonasi hamda Turkiyaning “Calik Energy” kompaniyasining 267 o‘rinli “Intercontinental” brendi ostida 5 yulduzli zamonaviy mehmonxona va biznes markazi majmuasi, 24 o‘rinli “Stay INN” mehmonxonasi foydalanishga topshirildi.

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida 220 o‘rinli “Beshyog‘och” zamonaviy mehmonxona majmuasi, “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan 50 ta modullik kapsula hamda 8 ta turar joy majmuasi va 128 o‘rinli 16 ta shale qurildi. Jizzax tumanida 250 o‘rinli “Zomin Suffa Resort” mehmonxonasi, Xiva shahrida 534 o‘rinli “Arda Khiva” mehmonxonasi va sayyohlik majmuasi hamda Xiva tumanida 80 o‘rinli “ProAgro” ekoturizm va glemping faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Navoiy shahrida 100 o‘rinli “Zarafshon grand hotel” mehmonxona majmuasi, Surxondaryo viloyati Termiz shahrida 74 o‘rinli “Termiz plaza” mehmonxonasi ishga tushirildi.

Bundan tashqari, hududlarda turizm qishloqlari tashkil qilindi. Bu yil esa oltita turizm qishlog‘i hamda turizm mahallalarini tashkil etish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar davom ettirilyapti. Salohiyatli qishloqlarga “turizm qishlog‘i”, “turizm mahallasi” maqomi beriladi.

Poytaxtimizning Mirobod tumani Taras Shevchenko hamda Yangihayot tumani Mehrigiyo ko‘chalarida “Gastronomik va turizm ko‘chalari” tashkil etilib, foydalanishga topshirildi. Qolgan tumanlarda ham bu boradagi ishlar jadal davom etyapti. Bunday ko‘chalar ochilishi natijasida 605 ta xizmat ko‘rsatish obyektining 211 tasi 24/7 rejimida ishlaydi. 153 ta yangi xizmat ko‘rsatish obyekti tashkil etiladi, 1378 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Hozir “Gastronomik va turizm ko‘chalari” loyihasi ijobiy samara berib, mahalliy aholini ish bilan ta’minlash va sayyohlik sektori rivojlanishini tezlashtirishga katta hissa qo‘shmoqda. Bu turdagi ko‘chalar faqat gastronomiya va turizmni rag‘batlantirib qolmay, atrofidagi infratuzilmani ham takomillashtiradi, tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratiladi. Har bir ko‘cha o‘ziga xos milliy va xalqaro taomlar, an’anaviy mehmonxona xizmatlari, madaniy va istirohat maskanlari bilan ta’minlanib, turistlar uchun jozibali bo‘ladi.

Shuningdek, yangi ish o‘rinlari va xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etilishi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va mahalliy biznesni qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Yangi imkoniyatlar yaratish, ishsizlikni kamaytirishga zamin hozirlamoqda.

“Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” dasturi samarasi

O‘tgan yili yurtimizda “Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” dasturi doirasida samarali ishlar bajarildi. Jumladan, Turkiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Germaniya, Isroilning xorijiy fuqarolarga tibbiy xizmat ko‘rsatish, mazkur yo‘nalishdagi boshqaruv tizimi tajribasini amaliyotga joriy etish yuzasidan mamlakatimizda tibbiy turizm yo‘nalishida muvofiqlashtiruvchi maxsus organ tashkil etish hamda xalqaro akkreditatsiya va sifat standartlarini joriy qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, tegishli tuzilmalarga taqdim etildi.

Ayni kunlarda bu yo‘nalishdagi ishlar davom ettirilib, Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot tashkilotlarining tibbiy turizm bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berishni belgilovchi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur hujjat bilan tibbiyot va sog‘lomlashtirish muassasalarining xalqaro turizm yarmarkalari va ko‘rgazmalarda o‘z xizmatlari hamda mahsulotlari bilan ishtirok etish xarajatlari hamda mazkur turdagi muassasalarning shifokorlari tomonidan xorijiy mamlakatlarda bepul tibbiy diagnostika xizmatlarini tashkil qilish bilan bog‘liq transport va yashash xarajatlarini qoplab berish tartibi nazarda tutilmoqda.

Muxtasar aytganda, yurtimizda turizm industriyasi va xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga davlat tomonidan katta e’tibor berilyapti. Qulay sayyohlik muhiti shakllantirilgani ko‘ngliga sayohat qilishni tukkan yurtdoshlarimiz bilan birga ona diyorimizning maftunkor jozibasiga mahliyo bo‘lib mamlakatimizga kelayotgan xorijliklarga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu sayyohlikni izchil rivojlantirishning muhim omili bo‘layotir. Soha rivoji esa, avvalo, iqtisodiy taraqqiyotga, qolaversa, dunyoga tinchlik va do‘stlikni keng tarannum etishga xizmat qilayotir.

w.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz

Yangicha yondashuvlar

TABIAT BILAN MUROSA

Buning uchun fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini qo‘llash zarur



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bugun tashqi muhitni chiqindi bilan ifloslovchi ko‘plab sanoat tarmoqlari tufayli bu chiqindilarni yo‘q qilishda muammolar mavjud. Ishlab chiqarish jarayoni intensivlashuvi fonida ekologik muammolar kuchayishi sanoat chiqindilarini boshqarish yondashuvini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Buning natijasida kelib chiqayotgan texnogen, ekologik va aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolar dolzarbligi har daqiqa oshmoqda.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 21-oktabrda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetiga tashrifi chog‘ida kelajakda barcha sohalar ekologiya bilan hamohang rivojlanishi, ayni damda ekologiya xuddi raqamli texnologiyalardek dolzarbligi, shu bois, universitetda ekoiqtisodiyot, moliya kabi yo‘nalishlar ochilgani, yaqin kunlarda dual ta’lim kengaytirilib, ushbu sohalarda ta’lim oluvchilar bilimini joylarda tatbiq qilishi mumkinligini ta’kidladi.

Chindan ham zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi hayotiy yumushlarimizni yengillashtirish barobarida ekologik muammolarni bartaraf etishda ham yordam beradi. Ilm-fan odamlari yangi loyihalari bilan ekotizim barqarorligini saqlashga hissa qo‘shsagina, antropogen manbalar zararini kamaytirish, havo sifatini baholash va boshqa samarali choralar ko‘rish mumkin.

Prezidentimiz tabiat bilan murosaga kelish uchun fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini qo‘llash, ekologik ekspertizalar, tajribalar o‘tkazish, jamiyatning har bir qatlamiga ekomadaniyat tushunchasini singdirish, targ‘ib qilish shartligini bot-bot takrorlagani “Sanoat Engineering Invests” loyihasi asoschilarida shijoat uyg‘otib yuborgan bo‘lsa, ajabmas.

— Sanoatda atmosferaga tashlanayotgan chiqindi gaz, oqova suv, tuproq strukturasi o‘zgarishi, atmosferaga tarqalayotgan mexanik aralashmalarni aniqlash, suyultirilgan gaz tarkibidagi propan-butan, vodorod sulfidi tarkibidagi oltingugurt miqdorini aniqlash, ularning tarqalish hududi, jamiyat va tabiatning tirik hamda notirik tarkibiy qismlarga ta’sirini o‘rganish, kelgusi oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish va kelib chiqadigan oqibatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish loyihaning asosiy maqsadlaridan, — deydi

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“Sanoatdagi chiqindi gazlar, oqova va qatlam suvi, tuproq strukturasi o‘zgarishi, atmosferaga tarqalayotgan mexanik aralashmalarni aniqlash bo‘yicha “Sanoat Engineering Invests” korxonasini tashkil etish” loyihasi rahbari Nurxon Toshov. — Atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning yarmidan ko‘pi uglerod oksidi. Avtomobil shahar atmosferasiga 70 foizgacha uglerod oksidi chiqaradi. Mashinasozlik zavodlari yaqinida va transport harakati oqimi kuchli chorrahalarda atmosferaning ushbu tarkibiy qism bilan ifloslanish darajasi yuqori. Mamlakat bo‘yicha uglerod oksidi chiqindilarining 53,8 foizi yonilg‘i-energetika, kimyo va neft-kimyo sanoatini o‘z ichiga olgan majmua ulushiga to‘g‘ri keladi. Hozirga qadar yer qa’ridan 100 milliard tonnadan ortiq ko‘mir, neft, torf kabilar qazib olingan. Ularning yoqilg‘i sifatida ishlatilishi natijasida 3,8 milliard tonna kul hamda chang atmosferaga tarqalgan. Shu kul va chang bilan birga 1,2 milliard tonna zaharli surma, 68 million tonna rux, 4 million tonna qo‘rg‘oshin, 50 ming tonna nikel, 4 ming tonna ftor, 35 million tonna fosfor, 15-48 ming tonna simob, 3 million tonnadan ortiq pestitsid, 500 ming tonna polixlorbifenil, 8 ming tonna benzopiren tabiatga, ya’ni havo, tuproq va suvga tushgan. Bu esa, o‘z navbatida, tabiatdagi moddalar harakati natijasida deyarli barcha hayot muhitida to‘planadi va tabiiy muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi.

Ushbu raqamlar balki allaqachon eskirgandir, balki hozir nisbatan kamroq chiqindi chiqayotgandir, biroq xavfli jihati bunda emas. Qo‘rqinchli tomoni mazkur raqamlar borligida. Bu umumbashariy muammo. Qaysidir millat, jamiyat yoki odamning “Menga taalluqli emas”, deyishga haqqi yo‘q. O‘zbekistonda har yetti kishiga bittadan avtomobil to‘g‘ri keladi, ya’ni bugun mamlakatimiz ko‘chalarida 4 milliondan ziyod mashina harakatlanyapti. Shundan 70 foizi siqilgan hamda suyultirilgan gazda yuradi. Atmosferaga chiqariladigan gaz tarkibida 300 dan ortiq zaharli birikma bo‘lib, buning 60 foizi aerozol holatida chiqarib tashlanishi avtotransportlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu loyiha orqali gazlarning sifat darajasini aniqlab, qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish asnosida atmosferaga chiqayotgan zararli gazlarni kamaytirish imkoniga erishishni maqsad qilganmiz. Umuman olganda, loyihaning maqsadi ko‘p va katta. Jumladan:

— O‘zbekiston hududidagi sanoat korxonalari va tashkilotlarida atmosfera ifloslanish darajasini eng zamonaviy, barcha talablarga javob beradigan uskunalar yordamida aniqlash hamda uning miqdorini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

— neft, gaz kondensati, tabiiy gazni yuqori aniqlikda sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilish;

— yurtimizdagi neft va gaz korxonalari, ularga yondosh hududlar tuprog‘idagi neft mahsulotlari miqdorini aniqlash;

— ichimlik suvni mikrobiologik tekshirish;

— atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, tabiiy muhitni kuzatish, ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga ta’sirini monitoring qilish;

— tuproq unumdorligi, hosildorligi, fizikaviy, fizik-mexanik xossalari, suv-havo, issiqlik va ozuqa rejimi hamda tuproqda kechadigan mikrobiologik jarayonlar strukturasini o‘rganish.

Mazkur loyiha orqali tuproqning neft mahsulotlari bilan ifloslanishini kamaytirish, atmosferani zararlantiruvchi manbalar ta’sirini pasaytirish, energetika sohasida parnik effektiga sabab bo‘luvchi manbalarni inventarizatsiya qilish kabi muammolarni hal etish mumkin.

— Fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini qo‘llab, havo, suv, tuproq, uglevodorod xomashyosi tarkibini yuqori aniqlikda tekshiramiz, — deydi loyiha rahbari. — Tuproq strukturasi va sifatini buzadigan xlorli tuzlar konsentratsiyasini aniqlaymiz. Aholi yashash joylaridagi chang va turli zararli gaz miqdorini o‘rganamiz. Insoniyatning biosferaga ta’sirini tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda muvozanatga erishish, shuningdek, noqulay atrof-muhit omillarini tartibga solishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ishchi hududning havosi, suv omborlari, aholi punktlari havosi, tuproq, oziq-ovqat mahsulotlarida yuzlab kimyoviy moddalar uchun standartlar yaratish mumkin.

Bugun loyiha bo‘yicha xizmat ko‘rsatish to‘liq yo‘lga qo‘yilib, 40 turga yaqin tahlil o‘tkazilmoqda. Xususan, umumlashgan ilmiy-tadqiqot laboratoriya markazi yaratilib, yiliga 5000 dan ortiq zararli holat bilan bog‘liq 750 ta tahlil natijalarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, atrof-muhitga yetkaziladigan zararni baholashga imkon bermoqda.

Nurxon Toshovning ta’kidlashicha, qatlam suvlarini tahlil qilish orqali suvning pH miqdorini 1-2 birlikka o‘zgartirish, tahlillar natijasiga

asosan atmosferaga tashlanayotgan chiqindi gazning miqdorini piroliz kondensati qoldig‘i bilan tozalash hisobiga 2 barobar kamaytirishga erishildi. Tovar gazi tarkibidagi vodorod sulfidi va merkaptanlarni xromotograf yordamida yuqori aniqlikda aniqlash natijasida gazni qayta ishlash korxonalari tovar gazi tarkibida qoladigan vodorod sulfidi va merkaptanlar miqdorini mos ravishda 5 va 15 milligramgacha pasaytirishga erishildi.

Yurtimizda ichimlik suv sifatiga talab yuqori. Shu sababli ichimlik suvni tadqiq qilish natijasida suvning qattiqligi, tarkibidagi kalsiy, magniy, sulfat va xlorid anionlari miqdori aniqlandi. Berilgan tavsiyalar natijasida ichimlik suvning qattiqligini 35-40 foiz kamaytirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

— Aholi va sanoat zonalarida hosil bo‘lgan oqova suvni tadqiq qilish, tarkibidagi organik qoldiqlarni sezilarli, xususan, 25-30 foiz kamaytirish haqida o‘ylayapmiz, — deydi Nurxon Toshov. — Kutilgan natijani ololsak, tadqiqotimiz oqova suv tashlanayotgan hudud ekostrukturasini yaxshilashga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, “Sanoat Engineering Invests” MCHJ Buxoro davlat universiteti bilan hamkorlikda tabiiy gazni qayta ishlash jarayonida foydalaniladigan seolitlarni tahlil qilish uchun kichik ko‘chma laboratoriya qurilmasi tayyorlab, korxonalar tomonidan sotib olinayotgan mahsulotlarning pasporti bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichlarga mos kelish-kelmasligini o‘rganib, xususiyatlarini to‘liq anglagan holda foydalanilgan seolitlar xususiyatini qayta tiklash bo‘yicha ilmiy ishlar qilinyapti.

Mana shunday innovatsion loyihalar, ilmiy tadqiqotlar inson hayoti uchun zarur ekologik xavfsiz muhitni ta’minlash, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan o‘ta samaradorlik bilan oqilona foydalanish, pirovard natijada tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni ilmiy asosda uyg‘unlashtirishda ko‘prik vazifasini o‘taydi.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

MUVAFFAQIYAT O‘Z-O‘ZIDAN KELMAYDI

I darajali serjant Jasurbek Ismoilov hayot yo‘lini harbiy xizmatga bog‘laganiga chorak asrdan oshdi. Andijon viloyati, Baliqchi tumanidagi Eski Haqqulobod qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tug‘ilgan o‘g‘lon o‘quvchilik chog‘idayoq harbiy askar bo‘lish, Vatan sarhadlarini himoyalashni maqsad qilgandi. Biroq faqat orzu-havas bilan sharafli va mashaqqatli kasb egasi bo‘lish qiyin.

Harbiylarga xos hayot kechirish, mavjud to‘siq va qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun, avvalo, bilim va dunyoqarash, jismoniy yetuklik muhim hisoblanadi. Shu bois, 25-umumta’lim maktabida tashkil etilgan belbog‘li kurash to‘garagining faol a’zosiga aylandi, har jihatdan chiniqdi.

Dastlab maktab, tuman va viloyat miqyosida o‘tkazilgan sport musobaqalarida g‘olib bo‘ldi. Kichik yutuqlar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirdi, fikr-mulohaza, dunyoqarashini kengaytirdi.

Umumta’lim maktabini tamomlagach, birinchilardan bo‘lib harbiy xizmatga borish tashabbusi bilan chiqdi. Armiyada bir yarim yil xizmat qildi. Shu qisqa fursat oddiy askar hayot tarzini tubdan o‘zgartirdi. U harbiy bo‘lishdek sharafli kasb egasi sifatida xizmatni davom ettirishga qaror qildi.

— Harbiy sohada xizmat qilib qolish borasida bildirgan fikrlarimga avvaliga ota-onam bir oz ro‘yxushlik bermagan, — deya xotirlaydi serjant. — “Xizmat qilib bo‘lding, yonimizga kirib, dalada dehqonchilik qilsang ham kuning o‘tadi”, deyishgan. Ammo

maqsadim qat’iy ekanini bilgach, oq yo‘l tilab duo qilishgan, shunga ham 26 yil bo‘libdi.

Harbiy xizmatda bo‘lish bir qaraganda oddiy ishdek ko‘rinadi. Ammo bu sharafli nomga munosiblik hammaning ham qo‘lidan kelmaydi. Belgilangan sinov jarayonlarini bosib o‘tishning mashaqqati oson kechmadi, albatta. Ayniqsa, jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha belgilangan normalarni bajarish uchun anchagina kuch, sabr-bardosh talab etiladi. Harbiy xizmatchi bo‘lish orzusidagi tengdoshlari safi anchagina edi. Sinov jarayonlari oxirida faqat mard va jasur yigitlargina saralanib qoldi. Ko‘pchiligi yarim yo‘ldayoq ortga qaytdi.

Barcha sinovlarni muvaffaqiyatli bosib o‘tgan Jasurbek o‘ziga bildirilgan ishonchni har jihatdan oqlash, jonajon yurtimizning chinakam askari bo‘lish, Vatanga sodiq xizmat qilishga ahd qildi. Toshkent viloyatidagi harbiy qismlarning birida ish boshladi. O‘z kasbining mukammal egasi sifatida yurtga xizmat qilishga kirisharkan, hech qachon ortga chekinmaslikka, umrini harbiylik kasbiga baxshida etishga bel bog‘ladi, qasamyod qildi, faol serjantlar qatoridan joy oldi. Jonkuyarligi, o‘z ishiga mas’uliyatliligi bilan ko‘pchilikka ibrat bo‘ldi. U qayerda, qanday vazifada ishlamasin, tajribali mutaxassis sifatida safdoshlari orasida obro‘-e’tibor qozondi.

Harbiylarda shunday gap bor: mashg‘ulotda qanchalik qiyin bo‘lsa, jangda oson bo‘ladi. Bu gap zamirida vatanparvarlik, izlanish va intilish, bilim va tafakkur uyg‘unligi mujassam ekanini anglab olish qiyin emas.

Yillar silsilasida toblangan yosh serjant har jihatdan chiniqdi, o‘z ustida ishlash, nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash, zamonaviy qurol-aslahalardan o‘rinli

foydalanish borasida bilim va ko‘nikmalarini oshirib bordi, tajriba to‘pladi. Bu yo‘lda bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi.

I darajali serjant Jasurbek Ismoilov “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 30 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlandi. U ayni paytda Farg‘ona shahrida o‘z xizmat vazifasini sharaf bilan o‘tab kelmoqda.

— Ona yurt tinchligi yo‘lida xizmat qilishdan ortiq baxt bo‘lmasa kerak, — deydi serjant Jasurbek g‘urur bilan. — O‘tgan yillar davomida bosib o‘tgan hayot yo‘limdan aslo afsuslanmayman. Aksincha, Vatanga xizmat qilishga qodir va munosib bo‘lganim bilan faxrlanaman. Milliy armiyamiz minglab yigitlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylandi. Hukumatimiz tomonidan harbiy xizmatchilarga bir qator imtiyozlar berilmoqda. Yaqinda oila a’zolarim bilan uch xonali zamonaviy uy-joyga ko‘chib o‘tdik. O‘g‘lim Jo‘rabek imtiyoz asosida Farg‘ona politexnika instituti talabasi bo‘ldi. U ham kelgusida harbiy sohada xizmat qilishni ko‘zlab, a’lo baholarga o‘qimoqda. Bu har qanday ota-onada faxr-iftixor uyg‘otadi. Har tong ishga oshiqayotganimda oila a’zolarim yuzidagi tabassum, g‘urur va ishonch tuyg‘ularidan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘dek ko‘tariladi, tunga qadar toliqish nimaligini bilmayman.

Bir o‘g‘il va qizni voyaga yetkazayotgan Ismoilovlar oilasiga ko‘pchilikning havasi keladi. Tinch-totuv, ibratli oila, nafaqat harbiy xizmatda, balki mahalla hayot tarzi bilan bog‘liq ko‘plab yumushlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

— Harbiy xizmatchi bilan yashash bir qaraganda faxr, ishonch tuyg‘usini oshiradi, — deydi oila bekasi Dilnoza Ismoilova. — Ammo uning o‘ziga yarasha qiyinchilik va mashaqqatlari bor. U yurt o‘g‘loni, Vatan qayerga yuborsa, o‘sha yerga borib xizmat qilishi shart. Joydan joyga ko‘chib yurgan kunlarimiz ko‘p bo‘lgan. Bu harbiy xizmatchilar oilasi uchun oddiy holat, aslida. Lekin mehnat va izlanish, yurt tinchligi yo‘lidagi sodiq xizmat e’tibordan chetda qolmas ekan. Bizga doimiy yashash uchun yangi uy berishdi. Shahar markazida, maktab, bog‘cha, tibbiyot punktiga yaqin hududda joylashgani ayni muddao. Ko‘pchilik bizga havas qiladi. Ota-onalar o‘z farzandlarini armiyaga ko‘zda yosh, yuragida xavotir va qo‘rquv bilan emas, balki farzandim haqiqiy Vatan himoyachisi bo‘ladi deb, ishonch va g‘urur bilan kuzatmoqda. Chunki bu kasb sharafli va muqaddas burch ekanini ko‘pchilik anglab yetdi.

Bugun I darajali serjant hayot tarzida o‘zgacha kun. Uni quvonch bilan qarshi olmoqda. Ammo xotirjamlikka berilgani yo‘q. Harbiy xizmatchi hamon safda, tunni tongga ulab bedor o‘tkazmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 37.
38993 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 20:50 Topshirildi — 23:20